



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 1 mart, № 45 (8668)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



EZGU MAQSADLAR YO'LIDAGI YANA BIR ULKAN QADAM

Prezident Shavkat Mirziyoyev 29-fevral kuni iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy sohalar va mahallalarda olib borilayotgan ishlar bilan tanishish, yangi obyekt va loyihalarni ishga tushirish uchun Xorazm viloyatiga tashrif buyurdi.



“VOLTALIA” KOMPANIYASI TOMONIDAN QUVVATI 100 MVT BO'LGAN
QUYOSH FOTOELEKTR STANSIYASI QURILISH ISHLARINI BOSHLASH MAROSIMI

Urganch, 2024-yil 29-fevral

GROUND BREAKING CEREMONY FOR CONSTRUCTION
OF 100 MW PHOTOVOLTAIC PLANT BY “VOLTALIA” COMPANY

Urganch, 29 February 2024

Davlatimiz rahbari dastlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumaniga borib, yangi ko'priknig ochilish marosimida ishtirok etdi.

Bu ulkan iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega strategik inshootdir. Prezidentimiz bu haqda tashabbusni 2020-yil 13-dekabr kuni Xorazm viloyati faollari bilan uchrashuvda ilgari surgan edi. Shundan so'ng puxta loyiha ishlab chiqilib, katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Davlatimiz rahbari uning qurilishini ikki bor kelib ko'rdi.

29-fevral kuni Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati faollari ishtirokida yangi ko'priknig tantanali ochilish marosimi bo'ldi.

Prezident dastlab poyezdda va avtomobilda yurib, ko'priknig sifatini ko'zdan kechirdi. Jamoatchilik ishtirokidagi yig'ilishda bu loyihaning samaradorligi, aholi hayotidagi ahamiyatini ta'kidladi.

— Orolbo'yi mintaqasini, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasini rivojlantirish, avvalo, ekologik inqiroz oqibatlarini yumshatib, murakkab vaziyatda yashayotgan aholimizga qulay sharoitlar yaratish mamlakatimiz taraqqiyot strategiyasining bosh maqsadlaridan biridir. Ilgari ham aytganimdek, Qoraqalpog'istonning taqdiri — bu O'zbekistonning taqdiri, qoraqalpoq xalqining baxti va farovonligi — bu butun O'zbekiston xalqining baxti va farovonligi. Bugun mana shu ezgu maqsadni amalga oshirish yo'lida yana bir ulkan qadam qo'ymoqdamiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ko'priknig qurilgan joy yurtimizning eng chekka hududlaridan biri. Shu paytgacha odamlar o'tgan asrning elliginch yillarida olib kelingan

eski ponton ko'prikdan foydalanib kelar edi. Har bahorda muz erib, daryoda suv ko'payishi bilan u jiddiy shikastlanardi. Bu daryoning ikki tomonidagi aholigacha juda ko'p qiyinchiliklar tug'dirardi.

Masalan, Amudaryo tumani aholisi avtomobilda Nukusga borish uchun Urganch va Beruniy orqali yurishga majbur edi. Buning uchun qo'shimcha 180 kilometr yo'l yurishga to'g'ri kelardi. Poyezdda esa Xorazmning sharqiy tomonidagi Hazorasap ko'prigidan o'tib kelinardi.

Yangi ko'priknig tufayli bu qiyinchiliklar barham topadi, xalqning uzog'i yaqin bo'ladi. U orqali Qoraqalpog'iston bilan Xorazmni bog'laydigan eng yaqin avtomobil va temir yo'l qatnovi yo'lga qo'yiladi.

Ko'priknig uzunligi 423 metr. U bilan birga Shovot — Qorao'zak bekatlarini bog'laydigan 85 kilometrlik temir yo'l hamda 3 ta vokzal ham barpo etildi.

Bu inshoot samarasida yo'lning o'tkazish qobiliyati 4 barobarga oshib, bir kechacha davomida 12 ming avtomobil harakatlantadi. Natijada 48 ming yo'lovchining 2 soat vaqti tejaladi va daryodan xavfsiz o'tishi ta'minlanadi.

Ko'priknig ikki tarafga qarab 24 juft poyezdni o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lib, bu orqali temir yo'l masofasi 180 kilometr, yuk tashish tezligi esa 6 soatgacha qisqaradi. Bu esa mahalliy yuklarni tashish hajmini yiliga 2 karra oshirish, tashish tannarxini 2 barobarga kamaytirish imkonini beradi. Ushbu temir yo'l orqali Qozog'iston va Rossiyaga ham yangi yo'nalishlar ochiladi.

Shuningdek, Qorao'zak konlaridan tosh

endi poyezdlarda tashilishi hisobiga Orolbo'yi mintaqasidagi 4 million aholi va turistlariga xizmat ko'rsatuvchi avtomobil yo'llari sifatli saqlanadi. Bundan ham aholi, ham tadbirkor va turistlar katta manfaat topadi.

— Biz birgalikda bunyod etgan bu muhtasham ko'priknig shunchaki navbatdagi infratuzilma inshooti emas. Bu ko'priknig, avvalo, o'zbek va qoraqalpoq xalqlari o'rtasidagi mustahkam ishonch va do'stlik, og'zibirik va hamkorlik ko'prigidir. Bu yo'l jahonga ochilayotgan Yangi O'zbekiston, Yangi Qoraqalpog'istonning taraqqiyot va farovonlik yo'llaridir. Mana shu azim daryoning ikki sohilida, shunday yorug' kunlarni orzu qilib yashab kelayotgan ming-minglab yurtdoshlarimizning umidlari ro'yobga chiqqan tarixiy kun barchamizga muborak bo'lsin, — dedi Prezident.

Davlatimiz rahbari og'ir iqlim sharoitida fidokorona mehnat qilgan mohir quruvchilarga, loyihachi va muhandislarga, ko'priknig barpo etishga munosib hissa qo'shgan barcha insonlarga minnatdorlik bildirdi. Aholiga qulaylik yaratishga qaratilgan ishlar izchil davom ettirilishi ta'kidlandi.

Xususan, bu yil Buxoro — Urganch — Xiva, kelgusi yildan Miskin — Nukus temir yo'li elektrlashtiriladi. Natijada Xiva hamda Nukus shaharlariga tezyurar poyezdlar qatnovi yo'lga qo'yiladi. Ushbu hududlardagi aholining mamlakatimizning boshqa shaharlariga borib-kelishi osonlashadi. Bu loyihalar hisobidan transport xarajatlari 2 barobar qisqarib, yo'lovchi tashish 30 foizga oshadi.

Umuman, bunday yirik loyihalar

Qoraqalpog'iston va Xorazmning iqtisodiy salohiyati oshishi, investitsiyalar oqimi va ish o'rinlari ko'payishi, aholi daromadlari o'sishiga xizmat qiladi.

Marosimda so'zga chiqqanlar mamlakatimiz hayotidagi ushbu tarixiy bir voqea munosabati bilan barchani tabriklab, Orolbo'yi rivojiga e'tibori uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev “Xiva klaster” mas'uliyati cheklangan jamiyatining to'qimachilik korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Mamlakatimizda xomashyoni chuqur qayta ishlab, qo'shilgan qiymat yaratishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, agrosanoatda klasterlar tomonidan zamonaviy korxonalar qurilib, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish kengaymoqda.

“Xiva klaster” ham Xiva tumanida shunday fabrika tashkil etdi. Turkiya, Germaniya va Xitoydan ilg'or uskunalar keltirib o'rnatildi. O'tgan yil noyabrda ishga tushirilgan korxonada 500 kishining bandligi ta'minlandi.

Korxonaga yiliga 7 ming tonna kalava ip, 4 ming tonna trikotaj mato, 10 million dona tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega. Eng muhimi, ularning sifati xalqaro standartlarga javob beradi. Shu bois ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar to'liq eksportga yo'naltiriladi. Korxonaning yillik eksport salohiyati 15 million dollar atrofida.

Davlatimiz rahbari bu yerdagi ishlab chiqarish jarayonini ko'zdan kechirdi, tikuvchi xotin-qizlar bilan suhbatlashdi.

Iqtisodiyot tarmoqlaridagi bugungi tendensiyadan kelib chiqib, bu korxonada ham energiya tejamkorlikka e'tibor qaratilgan. Masalan, kuz-qish oylarida xonalar ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan issiq suv yordamida isitiladi. Natijada katta miqdordagi tabiiy gaz tejaladi. Shuningdek, majmua tomlariga umumiy quvvati 60 kVt bo'lgan quyosh panellari ham o'rnatilgan. Bularning hisobiga mahsulot tannarxi raqobatchilikka nisbatan past bo'lmoqda.

Korxonada xorijiy hamkorlar talabiga asosan sifat nazorati, kasb o'rgatish markazi tashkil etilgan. Chiqindilarni qayta ishlab, foydalanish ham yo'lga qo'yilgan.

To'qimachilik klasteri o'tgan yili qariyb 20 ming tonna paxta xomashyosi yetishtirgan. Shundan 1 ming 545 gektarda tomchilatib sug'orish yo'lga qo'yilgan.

Umuman, klaster tomonidan 2018 — 2023-yillarda 105 million dollarlik loyihalar amalga oshirilib, yillik 50 million dollarlik eksport quvvati yaratilgan. Klaster tizimida jami 800 dan ortiq yigit-qizlar ishlab olinmoqda. Jumladan, hozirda boshqa korxonalar bilan hamkorlikda yog', sovun, tuxum, sut mahsulotlari, poyabzallari kabi 20 ga yaqin tovarlar ishlab chiqarilmoqda.

Prezidentimiz mazkur klaster tizimidagi istiqbolli rejalar bilan ham tanishdi. Jumladan, yangi loyihalar hisobiga paxta yetishtirish va ishlab chiqarish hajmini oshirish, qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni olish, kichik hajmli yuk mashinalarini mahalliyashtirish mo'ljallangan. Shuningdek, yaqin yillarda chiqindisiz ishlab chiqarishga o'tish rejalashtirilgan.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

Ko'z o'ngimizdagi o'zgarishlar

ELLARNI, DILLARNI BIRLASHTIRGAN INSHOOT

Yaqin o'tmishda Amudaryoning bir qirg'og'ida ikkinchisiga o'tish mahalliy aholi uchun katta muammo tug'dirayotgan edi. Mustahkam asosga ega ko'priknig yo'q, vaqtinchalik suzuvchi ko'prikdan esa har doim ham foydalanish imkoni bo'lavermas edi.

Buning ustiga “omona” ko'prikdan foydalanish paytida baxtsiz hodisalar yuz bergani ham ko'p kuzatilgan. Ana shunday paytda uzog'ini yaqin qilish uchun shoshilinch ravishda daryodan o'tishga majbur bo'lgan kishining holatini bir ko'z o'ngingizga keltirib ko'ring.

Qolaversa, Amudaryo Markaziy Osiyodagi 2 ta eng uzun va katta daryolardan biri. Umumiy uzunligi 1 415 kilometr bo'lgan ushbu azim daryo Sirdaryoga nisbatan 4 barobar kattaligi bilan ahamiyatlidir.

Qalblarda muhrlangan hayajonli onlar

Bugun esa daryoning ikki qirg'og'ida

istiqomat qiluvchi Qoraqalpog'iston va Xorazm ahli yuziga quvonch yugurdi. Necha-necha yillardan buyon orzu bo'lib kelgan Amudaryo ustida ustunlari mustahkam va zamonaviy ko'priknig bunyod etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 29-fevral kuni Xorazm viloyatiga tashrii chog'ida dastlab Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo tumaniga borib, yangi ko'priknig ochilish marosimida qatnashdi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati faollari ishtirokida bo'lib o'tgan tantanali marosimda davlatimiz rahbari bu loyihaning samaradorligi, aholi hayotidagi ahamiyatini alohida ta'kidladi.



HAR BIR XONADONGA “YASHIL” ENERGIYA KIRIB BORADI

Yurtimizda quyosh va shamol energiyasi salohiyati elektrga bo'lgan hozirgi ehtiyojni 10 — 12 barobar ortig'i bilan qoplashga yetadi. Shunday bo'lsa-da, bu ulkan imkoniyat ancha yillar davomida ishga solinmagan edi. So'nggi yillarda bu sohaga katta e'tibor qaratilib, huquqiy zamin yaratildi. “Yashil” energiya manbalarini barpo qilish bo'yicha katta dasturlar boshlandi. Davlatimiz rahbarining Xorazm viloyatiga tashrii chog'ida Tuproqqal'a tumanida “VOLTALIA” kompaniyasi tomonidan quvvati 100 megavattlik quyosh elektr stansiyasi qurilishi boshlash marosimida ishtirok etgani bu boradagi ishlarning izchil davom ettirilayotganidan darak beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 28-fevral kuni qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko'paytirish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazgan yig'ilishda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko'paytirish va shunga yarasha infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha yangi rejalar muhokama qilgan edi. Shunga ko'ra 2024-yilda “yashil” energiya hajmi 13 milliard kilovatt-soatga, uning mamlakatimizdagi jami ulushi 15 foizga yetadi. Qisqa davr uchun bu juda katta ko'rsatkich, albatta.

Lekin bu borada hali imkoniyatlar ko'p, ular hamma hududlarda ham to'liq ishga solinmayapti. Shu bois aholi va iqtisodiyot tarmoqlari talabidan kelib chiqib, kelgusi uch yilda 8 gigavattli 28 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushiriladi. 944 kilometr yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari va 6 ta yirik podstantsiya quriladi. Jami 2,2 gigavatt bo'lgan 18 ta elektr saqlash quvvati o'rnatiladi.



Iftixor

Sirojiddin SAYYID,
O'zbekiston xalq shoiri

YANGI ZAMON KO'PRIGI

Qani shoir, zamon yukin sen ham ildam orqala,
Zamonangdan bir qadam ham qolma aslo orqada.

Kecha-kunduz tinim bilmas, zo'r shiddat, guldurosi,
Bedor bo'l der, bedor bo'l der, bedor zamon daryosi.

O'kizdaryo, Amudaryo, Jayhundaryo, jon daryo,
Qadim elga o'zingirsan qadim sharaf-shon daryo.

Bir yon Xorazm eliyu, bir tomon — Qoraqalpoq,
Uch ming yillik manzil go'yo u qirg'oq to bu qirg'oq.

Qo'sh sohilda sabrlari jarlar kabi yemirilgan,
Asrlarkim, ikki elat bir-biriga termilgan.

Oraliqda oqqan daryo go'yo hajru firoqdir,
Qoshu ko'zdan yaqinroq'u, asrlarcha yiroqdir.

Ziddiyatga to'liq dunyo, nizolarga — dahri dun,
Yarim dunyo bag'riqonu, yarim dunyo — jigarxun.

Bizning maqsad ezgulikdir, to'ldirgaymiz kamini,
Xushmujdalar ko'msin deymiz butun ro'yi zaminni.

Har tong, har on yetkizgaydir har bir uchgan qush xabar,
Bu tong sahar Xorazmdan keldi yangi xushxabar:

Elnig orzu-armonlari yana bir bor ayrilmish,
Amudaryo uzra ulkan yangi ko'priknig qurilmish.

Dilimizda, tilimizda faxru g'urur, shukrona,
“Hayyo-huyt” deb Xorazmga tomon bo'ldik ravona.

Hali Mo'ynoq hayratlarin sehri tarqalmay turib,
Qarshimizdan bir mo'jiza chiqdi ozod qad kerib.

Bir ko'priknig, andozasi bo'lmagan bu aroda,
Asrlarni, davrlarni bog'lagan bir ma'voda.

Shovot tomonlardan kelsang dilda jo'shib g'ayratlar,
Borlig'ingni chulg'ab olar zavqu shavq va hayratlar.

Qadim tuproq, tug'laring ham tug'rolaring bor bo'lsin,
Sulton Uvays tog'laring ham Kubrolaring bor bo'lsin!

Beruniyning, Xorazmiyning arvohlari shundadir,
Ogahiyning bedor, ogoh nigohlari shundadir.

Sen o'zingsan bulbullarga havo baxsh etgan diyori,
Maxtumquli Firog'iyga navo baxsh etgan diyori.

Ajmiyoz bobolarning xuddi she'r, laparlari
Misol ketar kelajakka temir yo'l shpallari.

Qolgan gapni mayli endi Berdax bobo aytinsin,
Poyezd minib, Xevohlarni bir sayr etib qaytinsinlar.

Asrlarday kechdi xalqim, nursiz oyu yillaring,
Avaz O'tarlarning o'tdi, o'tdi Ibroymilarning.

San'atning bor olamga ko'priknig etmish O'zi haq,
Ey, dunyoga Komiljonday hofizlarni bergan xalq,

Hali bunga “chug'ur-chug'ur” sayyohlarning kelgaylar,
Yarqiragan vagonlarda sabolarday yelgaylar.

Ikki million yo'lovchining quvonchin tasavvur qil,
Tasavvur qil, so'ng bekatda o'tirib tafakkur qil.

Bir ko'priknig, karvonlarning davronlarga qorishgay,
To'rt milliyonli elning ko'ngli bir o'ftobday yorishgay.

Millat otasining noxos ko'zlarida balqqan yosh,
Bu ming yillik armon erur, bu bir asrlik bardosh.

Qani shoir, zamon yukin sen ham ildam orqala,
Zamonangdan bir qadam ham qolma aslo orqada.

Yaqinroqdir qoshu ko'zdan o'g'il-qizning kiprigi,
Yangi zamon ko'prigi bu! Yangi zamon ko'prigi!

Vatan ig'vogarlariga mening aytar gapim bor:
Bizda maqsad ko'priklarining tayanchlari ustuvor.

Hurmat uchun otdan tushib, ta'zim aylab kutardi,
Sulton Jaloliddin bundan ot yetaklab o'tardi.

Ko'rib yangi binolarini Yangi zamon me'morin,
Ne deb rivoyat so'ylardi Islomxo'ja minori?

O'ylamangkim, manzillarga qurilgan ko'priknig bu,
Ko'ngillardan ko'ngillarga qurilgan ko'priknig bu.

Kecha-kunduz tinim bilmas zo'r shiddat, guldurosi,
Bedor bo'l der, bedor bo'l der, bedor zamon daryosi.

Inson umri garchi bir xas, misoli bir kiprikdir,
Bir avlodni ming avlodga bog'laguvchi ko'priknigdir.

Siz ham Zamon Me'moriday me'mor bo'ling, eldoshlar,
Bedor bo'ling, bedor bo'ling, bedor bo'ling, eldoshlar!

EZGU MAQSADLAR YO'LIDAGI YANA BIR ULKAN QADAM

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Klaster bu istiqbolli loyihalarni amalga oshirish orqali 10 mingdan 30 minggaacha ish o'rni yaratishni maqsad qilib olgan.

Davlatimiz rahbari Xorazm viloyatida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan investitsiya loyihalari taqdimoti bilan ham tanishdi.

Viloyatda chet ellik investorlar bilan hamkorlikda mashinasozlik, shaharsozlik, kimyo, to'qimachilik, qurilish materiallari, tibbiyot, oziq-ovqat kabi muhim tarmoqlarda umumiy qiymati 1,5 milliard dollarlik o'nlab loyihalar ishlab chiqilgan. Taqdimotda shundan umumiy qiymati 660 million dollardan ziyod 18 ta loyiha haqida axborot berildi.

Xususan, yuk elektromobillari, akkumulyatorlar uchun nikel sulfat, arxitektura oynalari, shisha idishlar, qurilish materiallari, lok-bo'yoqlar va mato ishlab chiqarish kabi loyihalar hudud iqtisodiyoti rivojiga katta hissa qo'shib, minglab ish o'rini yaratishi bilan ahamiyatli. Mehmonxonalar, shifoxonalar, ko'ngilochar maskanlar va yo'llar qurish, ekoturizmi va baliqchilikni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar aholi farovonligi oshirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari ularning tashabbuskorlari bo'lgan chet ellik investorlar va mahalliy tadbirkorlar bilan suhbatlashdi. Loyihalarning iqtisodiy samaradorligi haqida fikr almashilib, ularni jadallashtirish, tadbirkorlarga qo'shimcha sharoit yaratish bo'yicha mutasaddilarga topshiriqlar berildi.

So'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Xiva tumanidagi Istiqlol mahallasiga bordi.

Mahallada 3 ming 200 nafarga yaqin aholi yashaydi. Bu yerda 10 ta ishlab chiqarish korxonasi, 30 ga yaqin xizmat ko'rsatish shoxobchalari, yondosh hududda fermer xo'jaliklari mavjud. Odamlar, asosan, tadbirkorlik va dehqonchilik bilan shug'ullanadi.

Yaqinda mahalla idorasi binosi ta'mirlanib, to'liq jihozlandi. Hududdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab

va tibbiyot maskanida barcha sharoit bor.

Mahalla faollari Prezidentimizga odamlarning turmush tarzi, daromadi, yoshlarning muvaffaqiyati haqida so'zlab berdi. Mahallada ishsiz aholini doimiy va mavsumiy ishlarga joylashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ijtimoiy daftarlarga kiritilgan fuqarolar bilan individual ishlash tizimi samara bermoqda. Ishsizlarga dehqonchilik uchun yer berish tajribasining Xorazm uchun ahamiyati kattaligi aytiladi.

O'zbekiston Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda Farmoniga muvofiq, mahalla institutining jamiyatimizda va aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatidagi roli oshirildi. Mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, soliqchi va ijtimoiy xizmat xodimidan iborat "mahalla yetiligi" tashkil etildi.

Ushbu tizim vakillari bilan muloqotda xalqni rozi qilishda mahalla tizimidagi samarali faoliyat, hamjihatlik muhimligi qayd etildi. Bunda quyi bo'g'indagi davlat vakillari o'zlariga berilgan vakolatdan foydalanib, odamlarni rozi qilishi kerakligi ta'kidlandi.

Viloyatda ishsizlikni kamaytirish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash orqali yangi ish o'rini yaratish doimiy vazifa ekani qayd etildi.

Davlatimiz rahbari mahallalarda bo'lganida biror xonadonda mehmon bo'lishi yaxshi an'anaga aylangan. Bu odamlar bilan yanada yaqin bo'lib, samimiy suhbatlashishga xizmat qiladi.

Bu gal ham shunday bo'ldi. Prezident mahallada yashovchi Sobirjon Matjonov xonadoniga tashrif buyurdi. Oila boshlig'i qishloq xo'jaligi ilmini yaxshi biladi. Xonadon sohiblari mo'jzagina tomorqada issiqxonaga qurib, qulupnay yetishtiradi. Shuningdek, uy sharoitida baliqchilikni yo'lga qo'ygan. Parvarish qilinayotgan parranda — yuzdan ortiq tovuqlar, mingga yaqin bedanalar oilaga qo'shimcha daromad keltirmoqda.

Suhbatda aholini tadbirkorlikka jalb etish, yoshlarni mehnatga o'rnatib, kasbli qilish muhimligi, buning uchun

davlat tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratilishi ta'kidlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xorazm viloyatiga tashrif chog'ida "Voltalia" kompaniyasi tomonidan quvvati 100 megavattlik quyosh elektr stansiyasi qurilishi boshlash marosimi bo'ldi.

Ma'lumki, davlatimiz tomonidan qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, katta dasturlar amalga oshirilmoqda. Oxirgi uch yilda hududlarda birgina quyosh va shamol generatsiya quvvatlarini ishga tushirish uchun 2 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. Natijada Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida umumiy quvvati 2,6 gigavatt bo'lgan 9 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyasi tarmoqqa ulandi.

Yana bir muhim jihati, bu loyihalar Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Xitoy, Fransiya kabi taraqqiy topgan mamlakatlar bilan sheriklikda amalga oshirilayotir.

Marosimda davlatimiz rahbari bu sohaning strategik ahamiyatini qayd etdi.

— Energetika sanoatida barqarorlikka erishish global integratsiya sharoitida har bir davlatning strategik maqsadi. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi generatsiyalar — zamonaviy taraqqiyotga erishish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda kuch-quvvat bo'ladigan asosiy daryulardan biridir, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Muqobil energetika hisobiga bu yil respublikaning elektr generatsiyasida "yashil" energiya ulushi 15 foizga yetishi ta'kidlandi. 2030-yilga borib, aholisi 40 milliondan ortadigan Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan energiyani 40 foizini "yashil" energiya hisobidan qoplash maqsad qilingan.

Bu borada aholi manfaatdorligini oshirish uchun o'tgan yili "Quyoshli xonadon" dasturi boshlandi. 14 milliard so'm imtiyozli resurslar ajratildi, soliq imtiyozlari berildi. Shuningdek, ehtiyojdan ortiqcha elektrni davlat tomonidan kafolati xarid qilish tizimi yo'lga qo'yildi.

Bu o'z samarasini bera boshladi.

Jumladan, Xorazmda ham 2 mingdan ziyod xonadonlar va 855 nafar tadbirkor 15 megavattlik quyosh panellarini o'rnatib, ular tomonidan ehtiyojidan ko'p ishlab chiqarilgan 320 ming kilovatt-soat elektr energiyasi davlat tomonidan sotib olindi.

Endi bu sohada yana bir majmua — Fransiyaning "Voltalia" kompaniyasi tomonidan Tuproqqal'a tumanida quyosh fotoelektr stansiyasi qurilishi boshlanmoqda.

Bu Xorazmdagi ilk shunday yirik loyiha bo'ldi. Uning natijasida yiliga 254 million kilovatt-soat "yashil" energiya ishlab chiqariladi. Bu esa Xorazm viloyati yillik elektr energiyasi iste'molining 11 foizini qoplaydi. Ushbu stansiya yil yakunigacha tarmoqqa ulash rejalashtirilgan.

Umuman, bu loyiha ishga tushsa, Xorazm viloyatida elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlari 30 foizga oshib, 424 megavattga yetadi. Xususan, Tuproqqal'a tumanining elektrga bo'lgan yillik 135 million kilovatt-soat talabi to'liq qondiriladi.

Shu bilan birga, iste'moldan ortgan 40 foiz energiyani qo'shni tumanlarga uzatish imkoniyati paydo bo'ldi. Ya'ni 85 ming xonadonni elektr energiyasi bilan barqaror ta'minlashga erishiladi.

Eng muhimi, ushbu loyiha orqali 76 million metr kub tabiiy gaz tejaladi, atmosferaga 106 ming tonna zararli moddalar chiqishining oldi olinadi.

Yana bir e'tiborli tomoni, mazkur loyiha doirasida ilk bor agrovoltaika tajribasi qo'llanadi. Bu bir maydonning o'zida energiya va qishloq xo'jaligini birlashtirish usuli bo'lib, quyosh panellari ostida sabzavot va poliz ekinlari yetishtiriladi.

Davlatimiz rahbari bunday innovatsion loyihalar O'zbekiston bilan Fransiya o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilishini ta'kidlab, investor va muhandislarga minnatdorlik bildirdi.

— Barchangizni nafaqat Xorazm viloyati, balki butun mamlakatimiz iqtisodiyotiga yangi ruh va nafas olib kiradigan mana shunday yangi quvvatlar bilan tabriklayman, — dedi Prezident.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xorazm viloyatiga tashrif doirasida "Voltalia" kompaniyasi bosh direktori Sebestyen Kler bilan uchrashuv o'tkazdi.

Fransiyaning ushbu kompaniyasi qayta tiklanuvchi energetika sohasidagi inshootlarni qurishda boy tajribaga ega. Hozir dunyoning 20 mamlakatida umumiy qiymati 10 milliard dollardan ziyod investitsiya loyihalarini amalga oshirmoqda. Uchrashuvda o'zaro manfaatli sheriklikni kengaytirish istiqbollari ko'rib chiqildi.

Oliy darajadagi muntazam uchrashuvlar tufayli keng qamrovli tus olgan O'zbekiston bilan Fransiya o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlar izchil rivojlanib borayotgani qayd etildi.

O'zbekiston Prezidenti 2022-yil noyabr oyida Fransiya bilan amalda oshirgan rasmiy tashrif doirasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohasida hamkorlik yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

Shu ma'noda, "Voltalia" bilan hamkorlikda Tuproqqal'a tumanida quvvati 100 megavattlik quyosh elektr stansiyasini barpo etish loyihasi doirasidagi ishlar boshlanayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. Kelgusida agrovoltaika yechimlarini joriy qilgan holda uning imkoniyatlarini yanada kengaytirish mumkinligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari kompaniya bilan hamkorlikni kengaytirish, shu jumladan, Xorazm viloyatida akkumulyatorlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va Buxoro viloyatida gidrid turdagi elektr stansiyasini qurish rejalari qo'llab-quvvatlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Urganch shahridagi "Khorezm Insulation Group" qo'shma korxonasini borib ko'rdi.

Mamlakatimizda bunyodkorlik ko'lami keng. So'nggi yillarda barcha loyihalarda energiya tejankorlik vazifasi qo'yilmoqda. Shu bois bazalt xomashyosiga talab oshib borayotir. Tahlillarga ko'ra, mamlakatimizda bunday mahsulotdan tayyorlangan plitalarga yillik talab 80 ming tonna. Shu jihatdan, "Khorezm Insulation

Group" qo'shma korxonasi bozor konyunkturasida asosida tashkil topdi, deyish mumkin. Qiymati 41 million yevrolik ushbu loyihada bazalt xomashyosidan issiqlik saqlovchi plitalar ishlab chiqariladi. Xomashyo Qoraqalpog'iston Respublikasining Qoratau tog'idan olib kelinadi.

Korxonaning yillik quvvati 30 ming tonna bo'lib, qurilish sanoatiga talab yuqori mahsulotlar yetkazib beriladi. Shuningdek, Rossiya va qo'shni davlatlarga 10 million dollarlik eksport qilish imkoniyati yaratiladi.

Buning uchun Germaniya, Turkiya, Rossiya va Xitoy davlatlaridan zamonaviy uskunalar keltirib o'rnatilmoqda. Korxonada 300 ta yangi ish o'rni ochiladi.

Prezident korxonada bilan tanishar ekan, mahsulotlar sifatini yanada yaxshilash, mahalliy lashtirish darajasini oshirishga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlab.

Ayni paytda bu yerda yiliga 15 ming tonna polipropilen va polietilen tola ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha ham ish olib borilmoqda. Natijada 80 ta yangi ish o'rni, yana 10 million dollarlik eksport quvvati yaratilishi mo'ljallangan.

Xorazm viloyatiga tashrifining birinchi kuni yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Energetika vazirligi, "O'zbekiston" AJ va yirik xorijiy investitsiya kompaniyasi rahbariyati bilan yig'ilish o'tkazdi.

Xorazm viloyatida umumiy investitsiya hajmi 10 milliard dollardan ziyod bo'lgan yirik gaz-kimyo loyihasi birgalikda amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Bo'lajak quvvatlar yiliga 2,5 million tonna mahsulot ishlab chiqarish va 3 ming ish o'rni yaratishi kutilmoqda. Loyihani amalga oshirish muddati — 2024 — 2028-yillar.

Loyiha gaz-kimyo tarmog'i rivojiga yangi sur'at bag'ishlaydi va Yangi O'zbekiston sanoatining bayroqdorlaridan biriga aylanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xorazm viloyatiga tashrif davom etmoqda.

Ikrom AVVALBOYEV,
O'ZA muxbiri.

ELLARNI, DILLARNI BIRLASHTIRGAN INSHOOT



Bu ulkan iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega strategik inshootni qurish bo'yicha tashabbus Prezidentimiz tomonidan 2020-yil 13-dekabr kuni Xorazm viloyati faollari bilan uchrashuvda ilgari surilgan edi. Shundan so'ng puxta loyiha ishlab chiqilib, katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. O'tgan vaqt oraliqida davlatimiz rahbari qurilish ishlarini ikki marta kelib ko'rdi, o'z tavsiyalarini berdi.

— Orolbo'yi mintaqasini, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasini rivojlantirish, avvalo, ekologik inqiroz oqibatlarini yumshatib, murakkab vaziyatda yashayotgan aholimizga qulay sharoitlar yaratish mamlakatimiz taraqqiyot strategiyasining bosh maqsadlaridan biridir. Ilgari ham aytganimdek, Qoraqalpog'istonning taqdiri — bu O'zbekistonning taqdiri, qoraqalpog' xalqining baxti va farovonligi — bu butun O'zbekiston xalqining baxti hamda farovonligidir. Bugun mana shu ezgu maqsadni amalga oshirish yo'lida yana bir ulkan qadam qo'ymoqdamiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bugun ana shu ezgu niyatlar amalga oshmoqda. Ellarni, dillarni birlashtiradigan ko'priknig foydalanishga topshirilishi buning yaqqol tasdiqidir.

180 kilometr aylanib kelinar edi...

Odamlarning uzog'i yaqin, mushkuli oson bo'lsa, hayotdani rozi bo'ladi, ertasiya, yurt kelajigiga ishonchi yuksaladi. Buni birgina Amudaryo ustida qurilgan zamonaviy ko'prikn misolida ham aytish mumkin. Chunki ko'priknig yo'qligi odamlarga katta tashvish keltirgan. To'g'irrog'i, shu paytgacha odamlar o'tgan asrning elliginch yillarida olib kelingan eski ponton ko'priknidan foydalanib kelar edi. Bahor oylarida muz eriy boshlashi, daryoda suv ko'payishi bilan u ko'prikn jiddiy shikastlanardi. Bu daryoning ikki tomonidagi aholiga katta qiyinchiliklar tug'dirayotgan edi.

Masalan, Amudaryo tumani aholisi avtomobilda Nukusga borish uchun Urganch va Beruniy orqali yurishga majbur edi. Buning uchun qo'shimcha yo'l yurishga to'g'ri kelardi. Poyezdda esa Xorazmning

sharqiy tomonidagi Hazorasp ko'prigidan o'tib kelinardi. Endilikda yangi ko'prikn qurilgach bu qiyinchiliklar ortda qoldi. Xalqning uzog'i yaqin bo'ldi. U orqali Qoraqalpog'iston bilan Xorazmni bog'laydigan eng yaqin avtomobil va temir yo'l qatnovi yo'lga qo'yildi.

Mutaxassislar tomonidan zamonaviy ko'prikn poyezd va avtomobillar o'tishi uchun zarur bo'lgan barcha sharoit yaratildi. Ko'priknig ikki tomonidan kirish qismi milliy me'morchiligimiz asosida ko'rkam holatga keltirildi, 2 ta qo'riqlash binosi, shlabgamaur va yo'l belgilari o'rnatildi. Atrof-muhit ham obodonlashtirilib, manzarali ko'chatlar ekildi.

Ko'prikn va uning atrofiga sifatli asfalt yotqizildi, zamonaviy yoritqichlar o'rnatildi. Ko'prikn atrofidagi daryo bo'ylari maxsus to'siqlar bilan o'rab chiqildi. Ta'kidlash lozimki, Amudaryo — tezoqar daryo. Shunga qaramay mutaxassislar barcha bilim va tajribalarini ishga solib, zamonaviy texnikalardan unumli foydalanigan holda daryo ustida mahobatli temir yo'l hamda avtomobil yo'li ko'priknini qurishni ishonchli va sifatli uddalashdi.

Uzunligi naq 423 metr bo'lgan ushbu ko'prikn bilan birga Shovot — Qorao'zak bekatlarini bog'laydigan temir yo'l hamda 3 ta vokzal ham barpo etildi. Bu inshoot samarasida yo'lnig o'tkazish qobiliyati 4 barobar oshadi.

Ko'prikn ikki tarafga poyezdni o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lib, bu orqali temir yo'l masofasi, yuk tashish tezligi qisqaradi. Bu esa mahalliy yuklarni tashish hajmini oshirish, tashish tanarxini 2 barobar kamaytirish imkonini beradi. Ushbu temir yo'l orqali Qozog'iston va Rossiyaga ham yangi yo'nalishlar ochiladi.

Yana bir gap: Qorao'zak konlaridan tash endi poyezdlarda tashilishi hisobiga Orolbo'yi mintaqasidagi aholi va turistlarga xizmat ko'rsatuvchi avtomobil yo'llari sifatli saqlanadi. Bundan ham aholi, ham tadbirkor va turistlar katta manfaat topadi.

— Biz birgalikda bunyod etgan bu muhtasham ko'prikn shunchaki navbatdagi infratuzilma inshooti emas. Bu ko'prikn, avvalo, o'zbek va qoraqalpog' xalqlari o'rtasidagi mustahkam ishonch va do'stlik, og'zibirik va hamkorlik ko'prigidir. Bu yo'l

jahonga ochilayotgan Yangi O'zbekiston, Yangi Qoraqalpog'istonning taraqqiyot va farovonlik yo'llaridir. Mana shu azim daryoning ikki sohilida, shunday yorug' kunlarni orzu qilib yashab kelayotgan ming-minglab yurtdoshlarimizning umidlari ro'yobga chiqqan tarixiy kun barchamizga muborak bo'lsin, — dedi Prezident.

Davlatimiz rahbari og'ir iqlim sharoitida fidokorona mehnat qilgan mohir quruvchilarga, loyihachi va muhandislarga, ko'prikn barpo etishga munosib hissa qo'shgan barcha insonlarga minnatdorlik bildirdi. Aholiga qulaylik yaratishga qaratilgan ishlar izchil davom ettirilishi ta'kidlandi.

Xiva hamda Nukus shaharlariga tezyurur poyezdlar qatnovi yo'lga qo'yiladi. Ushbu hududlardagi aholining mamlakatimizning boshqa shaharlariga borib-kelishi osonlashadi. Bu loyihalar hisobidan transport xarajatlari qisqarib, yo'lovchi tashish hajmi oshadi.

Eng muhim jihati esa, bunday yirik loyihalar Qoraqalpog'iston va Xorazmning iqtisodiy salohiyati oshishi, investitsiyalar oqimi hamda ish o'rnlari ko'payishi, aholi daromadlari o'sishiga xizmat qiladi.

Xalqlarni og'zibirikka chorlovchi rishta

— Asrlar mobaynida Amudaryoda ko'prikn yo'qligi Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati aholisi uchun qiyinchilik tug'dirib kelayotgan edi, — deydi mehnat faxriysi, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi Aminboy Vafoyev. — Ayniqsa, qishning qahraton sovg'ida daryoda muz ko'chishi tufayli ponton ko'priknidan foydalanishning ham iloji bo'lmay qolardi. Gurlan tumaniga rahbarlik qilgan davrimda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ponton ko'prikn orqali tashishda ana shunday muammolardan juda aziyat chekkan edik. Ming shukrki, endi bu qiyinchiliklar ortda qoldi. Prezidentimizning tashabbusi bilan qisqa muddatda Amudaryo ustiga yana bir mahobatli ko'prikn barpo etildi.

Haqiqatda bu inshoot Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shovot — Gurlan — Jumurtov — Qipchoq temir yo'li qurilishi loyihasi tarkibiy qismi bo'lgan ushbu ko'prikn orqali avtomobil va temir yo'l qatnovi amalga oshiriladi. Gurlan tumanining mamlakatimizning boshqa mintaqalari bilan temir yo'l orqali bog'lanishi tufayli hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida yangi sahifa ochiladi. Ushbu ko'prikn xalq xo'jaligi yuklarini tashishda qulaylik yaratishi natijasida Xorazm viloyatining eksport salohiyati yanada ortadi.

2018-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan Urganchdan Xivagacha temir yo'l qurilib, yo'lovchi poyezdlar qatnovining yo'lga qo'yilishi xalqimiz va qadimiy shaharga tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun qulaylik tug'dirgan edi. Endilikda temir yo'l sohasida yana bir muhim yangilik — Buxoro — Miskin — Urganch — Xiva temir yo'lini elektrlashtirish loyihasi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Bu loyiha juda katta sayyohlik salohiyatiga ega Xorazm viloyatiga zamonaviy tezyurur poyezdlar qatnovini yo'lga qo'yish imkoniyatini yaratadi. Qorao'zak tumanidan Amudaryo va Gurlan tumanlari orqali Shovot tumanigacha umumiy uzunligi 80,2 kilometr bo'lgan temir yo'l liniyasining qurilish ishlari ham tugatilib, foydalanish arafasida turibdi. Umuman, Xorazm

viloyatida temir yo'l tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar hudud taraqqiyotiga keng yo'l ochmoqda.

Tarixiy voqeaga aylangan lahzalar

— Amudaryoning u tomoniga o'tishga qiynalgan kunlarim bugun ko'z o'ngimdan o'tmoqda, — deydi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, "Shuhrat" medali sohibasi Sayyora Samandarova. — 1995-yilning dekabr oyi edi. Ilmii izlanishlar olib



borayotgan paytimda Nukus davlat universitetida imtihon topshirish uchun ertalab yo'lga chiqdim. Daryoga kelib, ne ko'z bilan ko'rayki, ponton ko'prikn muzlaganligi bois yopib qo'yilgan ekan. Daryoni paromda kechib o'tishdan boshqa choram yo'q edi. Uyda ikki nafar kichik farzandim qolgandi, kechgacha imtihonni topshirib qaytishim kerak edi. Borsam, imtihon ham tugab bo'lgan. Domlalar ahvolumni tushunib, mendan alohida imtihon olishdi. Yana paromda qaytib, uyga yarim kechasi yig'lamoqdan beri bo'lib kirib bordim. O'shanda "mana shu azim daryo uzra bir ko'prikn bo'lsaydi..." degan orzu tug'ilgandi yuragimda.

Tantanal marosimda Yurtboshimiz mazkur ko'prikn qurilishining ahamiyati haqida gapirar ekan, paromda daryoni kechib o'tish xalqimiz uchun qanchalik qiyinchilik tug'dirganini qayd etdi. "Buni paromdan o'tib ko'rgan kishi his qiladi" deb qayta-qayta ta'kidlab. Buni ikki nafar farzandimni uyda qoldirib, ilm yo'llarida izlanayotgan 27 yoshimda men ham his qilganimni yuragimdan yana bir bor o'tkazdim...

Bu ko'priknning nafaqat savdo, iqtisodiy, transport, temir yo'l, balki ilmiy-ma'rifiy, madaniy-ma'naviy sohadagi ishlarni rivojlantirishda, bu boradagi aloqalarni mustahkamlashda ham muhim ahamiyatga ega. Ko'priknig maketini ko'rgandim, lekin bugun uning o'zini ko'rib, to'g'risi, bu ulug'vor bunyodkorlikning salobatidan hayratlandim. Daryo bo'yiga kelib, ey, daryo, men yana keldim, lekin endi agar yana kechib o'tguday bo'lsam, ming bir hadik ichra paromda emas, keng va ravon, nurafshon ko'priknidan bexavotir yurayab o'taman degan, yorqin fikr xayolimdan o'tdi.

Ushbu ko'prikn Amudaryoning har ikki qirg'og'ida yashovchi yurtdoshlarimizning asiy orzusini ro'yobga chiqardi. Prezidentimiz "Bu ko'prikn mening ham armonim edi" deganlarida, bu tuyg'u bu yerda yig'ilgan har bir yurtdoshimizning qalbini to'lg'inlantirib yubordi.

Bizning ma'naviy qadriyatlarimizda yo'l qurish, ko'prikn qurish, odamlarning uzog'ini yaqin, og'irini yengil qilish savob amallarining eng buyugi sifatida tilga olinadi.

Bugun inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan mana shunday ezgu, savob ish, Yangi O'zbekistonning yana bir yangi inshooti

elimizga muborak bo'lsin! Qoraqalpog' va Xorazm zaminida yashayotgan ellarni ellarga, dillarni dillarga bog'layotgan bu muhtasham ko'prikn chin ma'noda farovonlik va yuksalish ko'prigi bo'lsin!

Bugungi quvonchim xuddi Amu to'liqlari kabi misralarimga oqib kirdi go'yo:

**Amudaryo, intiq qirg'oqlarigini
Bu ko'prikn bog'lagay mang'u, chambarchas.
Ikki elning asiy armonlarini
Suvlarig oqizib ketgay abad, bas.**

**Osonmas elni el qilmoqlik asli,
Osonmas ko'tarmoqlik dardini.
Osmondan tushmagay na baxt, na iqbol,
Osonmas tiklamoqlik inson qadrini.**

**Salom, Qoraqalpog, salom, Xorazm,
Samolarni quchsin azaliy shoning.
Yangi O'zbekiston ko'priklaridan
Yorug' manzillarga yetsin karvoning!**

Shoira aytganidek, jonajon Vatan ichra bo'y ko'rsatayotgan hayotiy yangilanishlarni qarab, har bir kishining dili yayraydi, shunday go'zal va mafunyor yurt farzandi ekanidan ko'ksi g'unuraga to'ladi. Muazzam Amudaryo ustida bunyod etilgan muhtasham ko'prikn esa xalqimizning Yangi O'zbekiston atalmish go'zal diyorda yashayotganimizga yana bir bor ishonch uyg'otdi. Zotan, biz ana shunday mukammal va zamonaviy inshootlarimiz bilan o'zimiz uchun yangi tarixni yaratamiz.

**Faxriddin BOZOROV,
Odilbek ODAMBOYEV
("Xalq so'zi").**

SAMIMIY MULOQOTLAR – MUAMMOLAR YECHIMI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva yurtimiz hududlarida sog'liqni saqlash va ta'lim muassasalari, iqtisodiy obyektlar, mahallalarda bo'lib, aholi vakillari va mahalliy Kengashlar deputatlari bilan doimiy muloqotlar o'tkazib kelmoqda. Muhimi, ana shunday samimiy suhbatlar asnosida joylardagi muammolarga yechim topilmoqda.

Senator va hayot

Senat Raisining bu galgi tashrif manzili — Jizzax viloyatining Sharof Rashidov, Zomin va Do'stlik tumanlari hamda Jizzax shahri bo'ldi.

Dastlab Senat Raisi Sharof Rashidov tumanidagi "Jizzax" EIZda ishga tushirilgan yengil avtomobillar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan zavod faoliyati bilan tanishdi.

Mazkur zavod yiliga 100 mingta yengil avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega. Qayd etish joizki, loyiha doirasida yiliga 130 mln. dollarlik import o'rini bosuvchi 314 turdagi avtomobil ehtiyot qismlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi hamda 4 mingta ish o'rni yaratish ko'zda tutilgan.

Keyingi manzil shu tumanidagi "Oqto'sh" MFYda bunyod etilayotgan "Yangi O'zbekiston" massivi bo'ldi.

Shu o'rinda aytish joizki, bu kabi massivlar barcha viloyatda Prezidentimizning 2021-yil 9-dekabrda "Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga asosan bunyod etilmoqda.

41 gektardan kattaroq hududda 1 300 ta xonadonli 19 ta qo'p qavatlil yuqori, 1680 o'rinni umumta'lim maktabi binosi, 120 o'rinni maktabgacha ta'lim tashkiloti, 200 qatnovli poliklinika binosi, 12 ta bolalar maydonchasi, avtoturargohlar qurilmoqda.

Shuningdek, Senat Raisi tumaning Qang'li mahallasida istiqomat qilayotgan Yulduz Jabborova xonadonida bo'lib u

bilan yaqindan suhbat qildi. Bu ayol mahalla faollarining qo'llovi bilan olgan kredit mablag'lari evaziga Janubiy Koreya tajribasi asosidagi issiqxonada stellajlarda qulupnay yetishtirish orqali yaxshigina daromad olishga tushirilgan yengil avtomobillar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan zavod faoliyati bilan tanishdi.

Sharof Rashidov hamda Paxtakor tumanlari mahalliy Kengashlari deputatlari bilan o'tkazilgan uchrashuvda asosiy e'tibor "Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmonidan kelib chiqadigan vazifalarga qaratildi.

Muloqot davomida mahalliy Kengashlar faoliyati samaradorligini oshirish, bu borada deputatlik so'rovlarini, mahalliy davlat boshqaruvi organlari hisobotlarini eshitish institutlaridan to'laqonli foydalanish kabi masalalar yuzasidan o'zaro fikr almashildi.

Senat Raisining hududlarga tashrif davomida ijtimoiy obyektlar, xususan, sog'liqni saqlash hamda ta'lim muassasalari faoliyati doimiy e'tibordagi bo'ldi. Tuman markaziy shifoxonasiga tashrif chog'ida ham kompleksning kattalar, bolalar, tug'uruq bo'limlarida aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifati, bemorlarga yaratilgan sharoitlar bilan tanishildi. Onalik va bolalikni

himoya qilish, ularning salomatligi borasidagi ishlar tahlil qilindi. Shifokorlar bilan suhbat jarayonida mutaxassislar malakasini doimiy ravishda oshirib borish, kasalliklar profilaktikasi yo'nalishida qilinadigan ishlar bo'yicha qator takliflar bildirildi.

Viloyatning Zomin tumanida Ijtimoiy himoya milliy agentligiga qarashli "Muruvvat" internat uyidagi shart-sharoit o'rganildi.

Bu maskan 47 mird. so'm evaziga qayta rekonstruksiya qilinib, shu yilning yanvar oyida to'liq foydalanishga topshirilgan. Hozir internat uyi bir vaqtning o'zida 350 nafar nogironligi bo'lgan xotin-qizni o'z bag'riga sig'dira oladi. Chunki bu yerda 350 o'rinni yotoqxonaga, ma'muriy bino, oshxona, kir yuvish hamda yozgi pavilyon binosi to'liq rekonstruksiya qilinib, mukammal ta'mirlandi.

"Muruvvat" internat uyida Senat Raisi ayollarga yaratilgan sharoitlar bilan tanishib, shifokorlar va bemorlar bilan suhbatlashdi.

Tumandagi o'rganishlar davomida T. Norboyeva "Qayirma" MFYda amalga oshirilayotgan ishlar holati bilan tanishdi va "mahalla yetiligi" bilan suhbatlashib, ularning oldiga qo'yilgan vazifalar yuzasidan fikr almashdi. Xususan, suhbat davomida yoshlarning ta'limi, ularni kasbga yo'naltirish, bandligini ta'minlash masalalariga e'tibor qaratildi. Mahalladagi muammolarni mahalliy Kengashlar muhokamalariga kiritish yuzasidan tavsiyalar berildi.

Bundan tashqari, Senat Raisi fuqarolar yig'ini aholisi, xotin-qizlar bilan suhbat o'tkazib, mahallada ayollarni tadbirkorlikka faol jalb qilish, oilalar farovonligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor karatdi. Ayollar bandligini ta'minlash masalalari yuzasidan fikr bildirildi.

Suhbat davomida mahalla xotin-qizlar faoli Gulchehra Mahsudova hududdagi ayollarning ta'lim va

kasbiy ko'nikmalar olishi, munosib ish topishiga har tomonlama ko'maklashilayotgani, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida 12 nafar xotin-qiz kasb-hunar va tadbirkorlik yo'nalishida o'qitilib, ularga subsidiya va imtiyozli kreditlar olishida yordam berilganini aytib o'tdi. Shundan so'ng Zomin tumanida turizmi rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami bilan tanishildi hamda turistik zonaning zamonaviy turizm infratuzilmasi, mehmonxonalar va sayyohlarga yaratilgan sharoitlar ko'zdan kechirildi.

Tashrif doirasida Do'stlik tumanida tashkil etilgan "Mikrosanoat va xizmat ko'rsatish markazi" faoliyati o'rganildi. Bugungi kunda ushbu markazda 10 ta tadbirkorlik subyekti 82 ta loyihani amalga oshirmoqda.

Senat Raisi markazdagi trikotaj fabrikasida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar bilan uchrashib, ularga yaratilgan sharoitlar xususida fikrlandi. Tadbirkorlik subyektlarining ish faoliyatida duch kelayotgan muammolar bilan qiziqdi.

Tashrif doirasida tumanning "Chinobod" MFYda "mahalla yetiligi" ish faoliyati o'rganildi. Xususan, mahalla profilaktika inspektori bilan bo'lib o'tgan suhbat chog'ida xorijda ishlab yurgan mehnat migrantlari, muammoli oilalar va yoshlar bilan ishlash masalalari muhokama markazida bo'ldi. Ayni chog'da hududda joylashgan maktabda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida joriy etilgan "vatanparvar liderlar" faoliyatiga e'tibor qaratildi.

Bundan tashqari, tashrif chog'ida xotin-qizlar faollari bilan ayollar tadbirkorligini yo'lga qo'yish, ularni kasb-hunarga o'qitish hamda bandligini ta'minlash yuzasidan o'zaro fikr almashildi.

Bugun dunyo miqyosida axborot texnologiyalarining jadal sur'atda

rivojlanishi har bir tarmoq va sohaga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmayapti. Ahamiyatli, axborot texnologiyalari sport olamiga ham kirib kelib, sohaning yangi turlari paydo bo'lishiga olib kelayotir. Xususan, bugun respublikamizda kipersport turlari kun sayin rivojlanib bormoqda. Senat Raisi o'ngan yili Jizzax viloyatiga amalga oshirgan tashrif chog'ida yosh kipersportchilar bilan suhbatlashib, ularga yaratib berilgan shart-sharoitlarni ko'zdan kechirgan edi. T. Norboyeva bu galgi tashrifida ham kipersport rivoji va yaratilayotgan yangi imkoniyatlar bilan qiziqdi.

Xususan, Jizzax shahridagi "Jizzakh cyber sport" besh tashabbus arenasini bugun yoshlarning dunyoqarashiga mos ravishda zamonaviy sport turlari bilan band bo'lishini ta'minlab, jahon miqyosida yuqori natijalarni qo'lga kiritishlari uchun chinakam imkoniyatlar markazi bo'lib xizmat qilmoqda.

Kiberarena 1000 o'rinni musobaqa zali, 12 ta o'quv xonasi, 1 ta majlis zal, 20 o'quv kafesi va 32 o'rinni yotoqxonaga ega bo'lib eng so'nggi rusumdagi axborot vositalari bilan jihozlangan.

O'z navbatida, Senat Raisi, O'zbekiston velosport federatsiyasi raisi T. Norboyeva Jizzax olimpiya xazinalari kolleji velosportchilar bilan uchrashdi. Shu yerning o'zida viloyat velosport federatsiyasiga "Damas" avtomashinasi hamda sportchilarga 10 ta maxsus velosiped uchun sertifikat topshirildi.

Bugungi kunda viloyatda davlat tibbiyot muassasalari qatori xususiy sektor ham rivojlanmoqda. Senat Raisi Jizzaxdagi katta imkoniyatlarga ega "Rayhon-Shahzod" xususiy klinikasida bo'lib, shart-sharoitlar, uning imkoniyatlari bilan tanishdi hamda shifokorlar va bemorlar bilan muloqot o'tkazdi.

"Xalq so'zi".

HAR BIR XONADONGA "YASHIL" ENERGIYA KIRIB BORADI

Ma'lumki, davlatimiz tomonidan oxirgi uch yilda hududlarga birgina quyosh va shamol generatsiya quvvatlarini ishga tushirish uchun 2 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. Natijada Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida umumiy quvvati 2,6 gigavatt bo'lgan 9 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyasi tarmoqqa ulandi. Yana bir muhim jihati, bu loyihalar Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Xitoy, Fransiya kabi taraqqiy etgan mamlakatlar bilan sheriklikda amalga oshirilayotir.

Davlatimiz rahbari Tuproqqal'ada quyosh elektr stansiyasi qurilishini boshlash marosimida ta'kidlaganidek, energetika sanoatida barqarorlikka erishish global integratsiya sharoitida har bir davlatning strategik maqsadi. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi generatsiyalar — zamonaviy taraqqiyotga erishish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda kuch-quvvat bo'ladigan asosiy drayverlardan biri.

Muqobil energetikadan unumli foydalanish hisobiga 2030-yilga borib aholisi 40 milliondan ortidigan yangi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan energiyaning 40 foizini "yashil" energiya hisobidan qoplash mo'ljallanmoqda.

Bu borada aholi manfaatdorligini oshirish uchun o'tgan yili "Quyoshli xonadon" dasturi boshlandi. 14 milliard so'm imtiyozli resurslar ajratildi, soliq imtiyozlari berildi. Shuningdek, ehtiyodan ortiqcha elektr davlat tomonidan kafolatli xarid qilinayotgani xonadonlarga qo'shimcha daromad keltirilmog'ini.

Xorazm viloyatida ham 2 mingdan ziyod xonadonlar va 855 nafar tadbirkor 15 megavattli quyosh panellarini o'rnatib, ular tomonidan ehtiyodidan ko'p ishlab chiqarilgan 320 ming kilovatt-soat elektr energiyasi davlat tomonidan sotib olindi.

Endilikda vohada quyosh fotoelektr stansiyasi qurilishi boshlanayotgani esa aholini juda quvontirmoqda.

— Biz Prezident bilan loyihalarimizni imkon qadar tezroq amalga oshirish haqida fikrlashib oldik, — deydi "Vollia" kompaniyasi bosh direktori Sebastian Kler. — Kompaniyamiz dunyoning 20 ta mamlakati bilan o'z loyihalarini faol tarzda amalga oshirib kelyapti. Bu O'zbekistonda birinchi loyihamiz ekani tarixiy ahamiyatga ega. Ta'kidlashim kerakki, O'zbekiston bu borada tez rivojlanayapti, yaxshi ko'rsatkichlarga ega. Shuning uchun sizlar bilan hamkorlik qilishdan minnatdormiz.

Shuni ta'kidlash lozimki, bu Xorazmdagi ilk shunday yirik loyiha bo'ldi. Uning natijasida yiliga 254 million kilovatt-soat "yashil" energiya ishlab chiqariladi. Bu esa Xorazm viloyati yillik elektr energiyasi iste'molining 11 foizini qoplaydi. Ushbu stansiyani yil yakunigacha tarmoqqa ulash mo'ljallanmoqda.

Bu loyiha ishga tushgach Xorazm viloyatida elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvati 30 foiz oshib, 424 megavattga yetadi. Eng muhimi, ushbu loyiha orqali 76 million metr kub tabiiy gaz tejalandi, atmosferaga 106 ming tonna zararli moddalar chiqishining oldi olindi.

— Tuproqqal'a tumani yiliga o'rtaicha 135 million kilovatt-soat elektr energiyasi iste'mol qilinishini inobatga olsak, barpo etilayotgan quyosh elektr stansiyasi nafaqat mazkur tumanni to'liq elektr bilan ta'minlaydi, balki qo'shni tumanlarga ham elektr uzatish imkoniyatini yaratadi, — deydi O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi bo'lim boshlig'i Fitratilla Nabyeva. — Tumanda quyosh radiatsiyasi yaxshi bo'lganligi, cho'l yerlar ko'pligi bois, bu yerlar loyihaga tanlangan. Men aminmanki, Fransiya kompaniyasi bilan hamkorlik o'zining ijobiy samarasini beradi va loyiha muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

Yana bir yangilik — bu istiqbolli loyiha doirasida ilk bor agrovoltika tajribasi joriy etiladi. Bu bir maydonning o'zida energiya va qishloq xo'jaligini birlashtirish usuli bo'lib, quyosh panellari egallab turgan yer ostida sabzavot va poliz ekinlari yetishtirish yo'lga qo'yiladi.

"Xalq so'zi".

Markaziy Osiyo davlatlaridagi elchilarimiz hisobotlari eshitildi

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlari, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi majlisida O'zbekiston Respublikasining Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistondagi elchilarining hisobotlari eshitildi.

Tahlil

Tadbirda senatorlar, xalq deputatlari mahalliy Kengashlar deputatlari, tegishli vazirlik va idoralar, davlat kompaniyalari rahbarlari, ijro etuvchi hokimiyat organlari va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Eshitiluvchi shu yil 18-yanvar kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab berilgan vazifalar ijrosi ustidan parlament nazoratini o'rnatish maqsadida tashkil etildi. Oliy darajadagi tashriflar yakunlari bo'yicha qabul qilingan "yo'l xaritalari"da nazarda tutilgan investitsiya loyihalari va savdo bitimlarining o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash masalalari muhokama markazida bo'ldi.

Ta'kidlaganidek, Qozog'istondagi elchixonaning bevosita ko'magida umumiy qiymati 1,6 mird. dollarlik 29 ta investitsiya loyihasi va savdo bitimlarini amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Senatorlar eksport hajmini oshirish va Qozog'iston bilan savdoda ijobiy savdo balansiga erishish bo'yicha samarali chora-tadbirlar ko'rish muhimligini qayd etdi.

O'zbekistonning Qirg'izistondagi elchixonasi faoliyati tahlilida o'zaro manfaatli savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalar har tomonlama mustahkamlangani, ikki mamlakat fuqarolarining davlat chegarasini milliy guvohnomalar asosida kesib o'tish mexanizmi joriy etilgani, ikkita qo'shimcha o'tkazish punkti ochilgani qayd etildi. Qolaversa, eksport tovarlar nomenklaturasini diversifikatsiya qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish tavsiyasi etildi.

Mamlakatimizning Tojikistondagi elchixonasi faol ishtirokida 150 mln. dollarga yaqin investitsiyaviy bitimlar tuzildi va 100 mln. dollarga yaqin hajmda eksport shartnomalari imzolandi. Senatorlar mazkur elchixona birkirilgan Toshkent viloyatidagi investitsiyaviy takliflarni faollashtirish masalasiga e'tibor qaratishdi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida Turkmanistondagi elchixonaga tomonidan 80 dan ortiq o'zaro tashriflar, 200 dan ortiq tadbirlar tashkil etildi.

Ochiq muhokama davomida parlament a'zolari mahalliy hokimliklar va korxonalar tomonidan diplomatik vakolatxonalarimizning investitsiya loyihalari va eksport bo'yicha takliflarini ko'rib chiqishda sustkashlikka yo'l qo'yilayotganini tanqid qildi.

O'zbekiston diplomatik vakolatxonalarini rahbarlariga o'z faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha batafsil tavsiyalar berildi va aniq vazifalar belgilandi.

Majlis yakunlari bo'yicha Oliy Majlis Senati qo'mitasi tomonidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

YOSH AVLODNI ZARARLI ILLATLAR TA'SIRIDAN ASRAYLIK

Giyohvandlik — oqibati fojiali bo'lgan, inson umrini yemiradigan, salomatligiga putur yetkazadigan illat. Asr vabosiga aylangan bu illat domiga, ayniqsa, navqiron avlod vakillari tushib qolayotgani taassuffidir.

Mushohada



Bugungi kunda yoshlar orasida an'anaviy giyohvandlik moddalaridan voz kechib, ayniqsa, psixotrop va kuchli ta'sir etuvchi moddalar, masalan, "tramadol" va yangi paydo bo'lgan "tropikamid" dorilarini iste'mol qilish holatlari ko'paymoqda. Bu esa jamoat salomatligi nuqtayi nazaridan dunyo muammosiga aylangan.

JSS'ning ma'lumotlariga ko'ra 2020-yil yakunida dunyo bo'yicha 275 million odam psixofaol moddalarga qabul qilishi aniqlangan bo'lib, bu ko'rsatkich 2030-yilga borib yana 11 foizga ko'payishi taxmin qilinmoqda.

Dunyoda o'ttiz olti million kishi giyohvandlik moddalarini qabul qilishi natijasida salomatligi bilan bog'liq muammolardan aziyat chekmoqda. Jahonda sodir etilayotgan jinoyatlarining esa qariyb 60 foizi giyohvandlik hissasiga to'g'ri kelyapti. Ushbu holatlar o'zining ijtimoiy xavfliligi bilan ham doimiy e'tibor qaratilishi ta'zoza etadigan masalalardir.

Darhaqiqat, giyohvandlikka qaramlik aholining mehnatga qobiliyatli qismini zararlashi, ularning ijtimoiy himoyaga muhtojligi va unga ketadigan sarf-xarajatning kattaligi,

mamlakatning demografik holatiga ta'sir qilish orqali, birinchi, iqtisodiy taraqqiyotga, ikkinchidan, aholining sog'lom, bexavotir turmush kechirishiga xavf tug'dirishi bilan milliy yuksalish va barqarorlikka ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda aholi orasida psixotrop va giyohvandlik moddalarga qarabildirgan profilaktikasi va undan davolanish samaradorligini oshirish, bunday moddalar noqonuniy aylanishining oldini olish va barham berish bo'yicha mustahkam huquqiy asos yaratilgan. "Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to'g'risida"gi, "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasidandir.

Shuningdek, mutasaddi organlar, vazirliklar, tashkilotlar tomonidan aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Bojxona qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra respublikamiz bo'xonachilari tomonidan 2023-yil hamda joriy yilning o'tgan davri mobaynida aniqlangan 596 ta qonunbuzilish holatida umumiy og'irligi salkam 9,5 tonna giyohvandlik vositalarining noqonuniy olib o'tilishi va ichki hududdagi aylanmasiga o'z vaqtida chek qo'yilgan.

Ichki ishlar vazirligi ma'lumotiga ko'ra giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni oz miqdorda g'ayriqonuniy ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar 2023-yilda 1027 holatda ro'yxatga olingan bo'lib 2022-yildagiga (863 holat) nisbatan 164 holat ko'p aniqlangan.

2023-yil davomida giyohvandlik moddalari iste'mol qiluvchi 101 nafar, psixotrop dori vositalari iste'moliga ruju qo'ygan 4 nafar fuqaro vafoti qayd etilgan. Ushbu raqamlarning o'ziyoq har birimizni bu borada sergak va hushyor bo'lishga undaydi.

Qisqasi, ushbu xavf global tus olgan. Maktablarni giyohvandlik vositalaridan asrash bo'yicha yetarlicha xalqaro tajriba ham to'plangan. Ushbu illatning tarqalishidan aziyat chekkan rivojlangan mamlakatlarda hozirgi paytda o'quv muassasalarida narkotik

va psixotrop vositalar iste'moliga qarshi kurashishda eng ko'p samara berayotgan bir qator yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga, ta'lim muassasalari hududida narkotik va psixotrop moddalar savdosi, iste'moli va tarqatilishiga qarshi keskin jazo choralarini belgilangan. Qolaversa, muntazam ravishda maktablarda tasodifiy tanlov asosida tekshiruvlar o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan.

Albatta, bunday chora-tadbirlarning aksariyati mamlakatimizda ham qo'llanilgan va bu izchil davom etmoqda. Lekin jahon tajribasidan kelib chiqqan holda yangicha yondashuv va yechimlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Sababi giyohvand shaxsning farzandi tibbiy o'rganishlarga ko'ra jismoniy yoki aqliy nuqson bilan tug'iladi. Bu esa nafaqat oila, balki jamiyat uchun ham tashvishlanarli holatdir. Shunday ekan, bugungi dorilamon kunlarda dunyoga kelayotgan va voyaga yetayotgan sog'lom avlodni giyohvandlik balosidan asrash har birimizning asosiy va mas'uliyatli vazifamizdir.

Umuman olganda, ushbu masalada befarq bo'lmasligimiz lozim. Profilaktik tadbirlar ko'lami va samaradorligini yanada kuchaytirish zarur. Chunki bu xavf ma'lum muddatda yo'qolib ketmaydi. Aksincha, o'z domiga yangi "o'ljalarni"ni tortishda davom etadi. Demak, bunga qarshi barcha tashkilot, ta'lim muassasasi, ota-onalar qat'iy kurashishi, farzandlar salomatligi va kamoloti uchun doimo hushyor bo'lishi ayni muddaodir.

Zumrad BEKATOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati.

Deputatlar — hududlarda

Ustuvor vazifalar ijrosi o'rganilmoqda

Makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, investitsiya va eksport hajmini oshirish, sanoat, qurilish, transport, ekologiya hamda ijtimoiy sohalarda 2024-yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan yig'ilishlarda belgilab berilgan edi.

Shundan kelib chiqib, ayni shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlaridan iborat ishchi guruhlari hududlarda bo'lib, mazkur vazifalar ijrosiga oid ishlar holatini o'rganmoqda.

Hamkorlikda yangi ish o'rinalari yaratiladi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari Zuhra Ibragimova boshchiligidagi ishchi guruhi a'zolari dastlab Yangiyer shahridagi mebelsozlik klasteri faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Ushbu korxonada 110 ta ish o'rini yaratilgan bo'lib, bugungi kunda Yevropa standartlariga mos keluvchi 60 turdan ko'p mebel mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Ular nafaqat ichki bozorga, balki qo'shni davlatlarga ham eksport qilinayapti. Birgina Tojikiston davlatiga joriy yilning o'tgan davrida 200 ming dollarlik mahsulot eksport qilingan.

Shundan so'ng ishchi guruh a'zolari generatorlar, elektr choynaklar, plitalar va ventilyatorlar ishlab chiqarishga

Mutasaddilarga taklif va tavsiyalar berildi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari Xayrullo G'aforov boshchiligidagi ishchi guruh a'zolari Andijon viloyatida bo'lib, qurilish-bunyodkorlik, yangi ish o'rinalarini tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar holatini o'rganmoqda.

Dastlab deputatlar "Yangi Andijon" shahrini barpo etish ishlarini bilan tanishdi. Mazkur shaharni bosqichma-bosqich kompleks qurish uchun 4 ming gektar yer maydoni ajratilgan. Loyiha natijasida 440 ming aholi uchun turarjoy, ijtimoiy va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlari, kichik sanoat va yashil hududlarni barpo etish ko'zda tutilgan.

Deputatlar tomonidan loyiha doirasida ichimlik suvi va kanalizatsiya,

Qurilish ishlarida sifat birlamchi bo'lishi shart

Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisi Ravshan Mamutov boshchiligidagi ishchi guruh a'zolari o'rganishlarni Buxoro viloyatidan boshladi.

Dastlabki manzil — Qorovulbozor tumani bo'ldi. Bu yerda deputatlar tuman hokimi bilan birgalikda Bo'zachi mahallasi hududida joylashgan "Buxoro Agroklastor Chorva" MJCH faoliyati bilan tanishdi.

Mazkur chorvachilik majmuasida sut va go'sht yo'nalishida 3 ming bosh qoramol boqilmoqda. Shundan 1 ming boshi "Golshteyn", "Simmental" va "Svis" zotli sog'in sigirlardir. Nashchilik seleksiya ishlarini keng ko'lamda tashkil etish maqsadida hozir bu yerda "Angus" va Belgiyaning zotli qoramollari ham parvarishlanayotir.

Shuningdek, majmuada intensiv gidroponika usulda yashil ozuqa yetishtirish ham yo'lga qo'yilgan. Chorva mollarning ozuqa bazasini mustahkamlash maqsadida 400 gektar ozuqa ekin yer maydoni ajratilgan.

O'rganishlar davomida deputatlar tumanda olib borilayotgan bunyodkorlik, qurilish ishlarini bilan ham yaqindan tanishdi. Ayni chog'da tuman markazidagi

Cho'lquvar mahallasi hududida 5 qavatli 160 xonadonli qo'p qavatli uylar qurilmoqda. Joriy yil oxiriga qadar qurilish ishlarini yakunlab, foydalanishga topshiriladi.

Ishchi guruhi a'zolari qurilish ishlarini ko'zdan kechirib, birinchi galda sifatga alohida e'tibor berib, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun maxsus moslamalar o'rnatish bo'yicha tegishli tavsiyalar berdi.

Shuningdek, xalq vakillari Qorovulbozor tumani davlat o'rmon xo'jaligida ham bo'ldi.

Hozir bu yerda 4 470 gektar maydonda eilikka yaqin ishchi-mutaxassislar mehnati va jonbozligi bilan turli manzarali daraxt va buta ko'chatlari ko'paytirilmoqda. Xo'jalikda bugunga kelib 2 mln. tupdan ortiq ko'chatlar tayyorlangan bo'lib, viloyat bo'ylab buyurtmachi xo'jaliklarga yetkazib berilmoqda. Ayniqsa, qayrag'och, sadaqayrag'och, zarang, qayin, tut va yasin ko'chatlariga talab yuq

Bugun — O'zbekiston xalq shoiri
Zulfiya tavallud topgan kun

ADABIYOT CHAMANINING MANGU CHECHAGI



Zulfiya o'zining betakror she'riyati bilan o'zbek ayoli qalbidagi quvonch, yurtga muhabbat tuyg'ularini go'zal misralarda tarannum etgan ijodkoridir. U nihoyatda murakkab va dolg'ali hayotni boshdan kechirganiga qaramay ijodda, adabiyotda o'z so'zini ayta oldi. Latif ijodi bilan millionlab kishilar qalbiga ezgulik, muhabbat va sadoqat urug'larini sepd. Darvoqe, Zulfiya nafaqat badiiy ijodi bilan, ayni paytda o'zbek ayoliga xos vafo va sadoqat timsoli sifatida ham xalqimiz mehrini qozongan.

Har bahor kirib kelishi bilan beixtiyor xayolimizda hassos shoiraning bitiklari — otashin sevgi va mehr, yuksak insoniy fazilatlar balqib turuvchi satrlari jonlanadi: "Salqin saharlarda, bodom gulida, Binafsha labida, yerlarda bahor..."

Zulfiya va bahor bir-biriga bog'liqday, go'yo har gal bahorni aynan u boshlab keladiganga o'xshaydi. Shoirning yoniq she'rlari o'qilar, yuraklarga kirib borar ekan, adabiyot chamanini ham zavol bilmay, so'lmay yashayveradi.

ZULFIYA,
O'zbekiston xalq shoiri.

Sog'inib...

Shu kunlarda bahorga zorman,
Naxjuvonlik o'ti tanda yo'q.
Kuz singari za'far ruxsorman,
Mevalar ham shoxlardan uzug.

Shu kunlarda bahorga zorman,
Tanxastalik ezadi ruhim.
Tanho emas, qatorda borman,
Yana neni izlaydi suqim?

Shu kunlarda bahorga zorman,
Shaffof, yorqin kuy tilar ko'ngul.
Yaxshiyamki, qalamga yorman,
So'zlab turar bor dilimni ul.

Shu kunlarda bahorga zorman,
O'z bahorim kabi bemisol.
Bahor qaytmas, yonuvchi qorman,
Yo no'noq qo'l butagan nihol...

Shu kunlarda bahorga zorman...



"O'ZMILLIYBANK": TASHABBUS VA ILG'OR TAKLIFLARNI DOIM QO'LLAB-QUVVATLAYMIZ

Agar har bir so'm maqsadli ishlatsa, to'kinlik va qut-barakaga yuzlanamiz. Xuddi shunday, banklar kreditlaridan maqsadli foydalanib, o'ziga ham, elu yurtga ham naf keltirayotgan ishbilanmonlar safi kengayib borayotgani fikrimizga aniq misol bo'la oladi. Ishning ko'zini biladigan biznesmenlar bilan esa moliya muassasalari har doim hamkorlikka tayyor.

Shu jihatdan "O'zmilliybank" AJ hududlarda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, yangi korxonalar tashkil etish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, aholi bandligini ta'minlash, yangi uy-joylar qurish, qo'yningi, barcha yo'nalishda e'tiborga molik ishlarni amalga oshirayotgani quvonarli, albatta.

Moliya muassasalarida

Yaxshi g'oya — mo'l sarmoya

Fikrimizni aholiga namunali tibbiy xizmat ko'rsatib kelayotgan Andijon shahridagi "DOCTOR S PREMIUM" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga qarashli "SEHAT" klinikasi misolida davom ettiradigan bo'lsak,



bu jamoa "O'zmilliybank" AJning ko'magidan juda minnatdor. Chunki bank klinikaning oyoqqa turishida moliyaviy jihatdan madadkor bo'ldi. Buni klinika bosh shifokori Shavkatbek Anvarovning gaplaridan ham anglab olish qiyin emas.

— Klinikamizda urologiya, travmatologiya, ginekologiya, neyroxirurgiya, stomatologiya singari o'ndan ortiq yo'nalishlarda murakkab jarrohlik amaliyotlari o'tkaziladi, — deydi u. — To'rtta jarrohlik blokimiz bo'lib, ular Germaniya, Turkiya, Fransiya davlatlarida ishlab chiqarilgan eng zamonaviy, ilg'or apparat va uskunalari bilan jihozlangan. "O'zmilliybank" AJning moliyaviy ko'magi bilan xarid qilingan ushbu apparatlar jarrohlik amaliyotini tez, sifatli va ishonchli amalga oshirish, aniq laboratoriya tahlillarini olish imkonini beradi. Joriy yilda yangi yo'nalishlarda ish tashkil etish rejalimiz bor. Aminmanki, ana shu loyihalarni yo'lga qo'yishda ham ishonchli hamkorimiz — "O'zmilliybank" AJning moliyaviy ko'magiga tayanamiz.

Aynan "O'zmilliybank" AJ tomonidan Andijon viloyatida tashkil qilingan press-turda jurnalistlar mazkur klinika faoliyati bilan yaqindan tanishdilar, shifokorlar bilan ochiq muloqot va suhbatlar olib borildi. Uchrashuvda shu narsa ayon bo'ldiki, bank mablag'laridan to'g'ri, o'rinda va maqsadli foydalanilsa, albatta, barcha sohada ulkan yutuqlarni qo'lga kiritish mumkin. Mazkur klinikada aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, kasalliklarni erta aniqlash, aniq tashxis qo'yish va davolash yo'nalishida umumiy qiymati 3 mlrd. 900 mln. so'm bo'lgan loyiha amalga oshirildi. Aytish joizki, zarur tibbiy jihoz va uskunalarni xarid qilishda "O'zmilliybank" AJ tomonidan 1 mlrd. 900 mln. so'm miqdorida kredit ajratildi. Natijada bu shifo maskani eng murakkab operatsiyalar ham o'tkaziladigan ishonchli va zamonaviy klinikaga aylandi. Mazkur istiqbolli loyihaning ikkinchi bosqichini amalga oshirishda bank bilan hamkorlik davom etmoqda. Ayni vaqtda klinikada 60 nafardan ziyod kishilar doimiy ish o'rninga ega bo'ldi.

Bilim bor joyda muvaffaqiyat bor

"Bilagi zo'r bimi, bilimi zo'r mingni yiqar" deganlaridek, mamlakatimizda ilimga, ma'rifatga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, unib-o'sib kelayotgan navqiron avlodni zehni o'tkir va zakovatli qilib tarbiyalash borasida olib borilayotgan islohotlar ko'lami kengayib bormoqda. Bu islohotlar keng quloq yo'yishida banking ham o'ziga xos hissasi bor. Masalan, "O'zmilliybank" AJ Andijondagi nodavlat ta'lim muassasasini moliyaviy qo'llab-quvvatlab, yoshlarning ilm olishi va salohiyatli kadrlar bo'lib yetishishiga puxta zamin yaratdi.

OAV vakillari Andijon shahridagi "STEM SCHOOL" nodavlat ta'lim muassasasi faoliyati bilan yaqindan tanishib, bu yerdagi zamon bilan hamnafaslik va qulay imkoniyatlarni yuqori baholadi.

— Muassasamiz bundan ikki yil burun faoliyatini boshlagan bo'lsa-da, bizda o'qishni istovchi yigit-qizlarning safi tobora

kengayib bormoqda, — deydi tadbirkor Abdurasul Ismoilov. — O'quvchilarning jahon ta'lim standarti talablari asosida tahsil olishi uchun zamonaviy qulayliklar yaratilgan. Masalan, IT yo'nalishi borasida o'qitish metodikasi haqida aytadigan bo'lsak, bizda bu fan chuqurlashtirilgan holda o'rgatiladi.

Ta'lim muassasamizni texnologik jihozlashda "O'zmilliybank" AJning xizmati nihoyatda katta. Bank kompyuter jamalari sotib olishimizda va uni montaj qilishda yaqindan yordam berdi. Bank tomonidan ajratilgan 2 mlrd. so'm kredit evaziga sinfxonalimiz zamonaviy stol-stullar, doskalar bilan jihozlandi, maxsus xonalar tashkil etilib, 60 dan ziyod zamonaviy kompyuterlar xarid qilindi.

Bundan tashqari, axborot-resurs markazi faoliyati yo'lga qo'yildi. Mazkur markaz ham ko'plab o'quv-uslubiy qo'llanmalar, elektron adabiyotlar bilan ta'minlandi. "O'zmilliybank" AJ faoliyatimizni doimiy ravishda qo'llab-quvvatlab kelmoqda, umuman, biz bank xizmatidan juda mamnunmiz.

E'tiborlisi, mazkur nodavlat ta'lim muassasasi ishga tushgach, 21 nafar malakali mutaxassis doimiy ish o'rninga ega bo'ldi.

Gastronomik turizm rivoji yo'lida

Andijon nafaqat xushmanzara tabiati, betakror urf-odatlari bilan, balki mazali taomlari bilan ham dunyoga mashhur. Bugungi kunda ham shaharning qo'li shirin oshpazlari andijoncha osh, uyg'urcha lag'mon, somsary mantilar bilan mahalliy aholidan tortib xorijlik sayyohlarni-da lol qoldirib kelmoqda.



E'tiborlisi, keyingi yillarda Andijonga sayyohlar oqimining ko'payishi hisobiga gastronomik turizm ham tobora rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, boshqa millat taomlarini ham tayyorlash odatiy tus olayotgani tahsinga sazovor.

Bugungi kunda viloyatda gastronomik turizm yo'nalishining gurkurab rivojlanishida "O'zmilliybank" AJ Andijon viloyati bosh boshqarmasining hissasi katta bo'lmoqda. Bank muassasasining moliyaviy ko'magida ish boshlagan Andijon shahridagi "MERHABA KEBAB" restoran faoliyati bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Bank tomonidan ajratilgan 624 mln. so'm kredit hisobiga restoranda, asosan, o'zbek va turk milliy taomlari tayyorlanmoqda. Ushbu maskanda tortiq qilinayotgan turfa xil taomlarning betakror mazasi nafaqat andijonliklarga, balki bu yerga qadam ranjida qilayotgan sayyohlarga ham manzur bo'layotir. Restoran jamoasi bankingni moliyaviy ko'magida to'laonli faoliyat olib borib, taomlar turini ko'paytirayotgani, pirovardida yaxshigina



Reklama

daromad kelayotganini OAV vakillariga mamnuniyat bilan so'zlab berdilar.

Ayni kunda ushbu majmuada 10 nafar mahalliy yigit-qiz doimiy ish bilan band bo'lib, kelgusida restoranning kengayishi hisobiga yangi ish o'rnlari ochish mo'ljallanyapti.

IT akademiyasi faoliyati yo'lga qo'yildi

Raqamli texnologiyalar davriga qadam qo'ydik. Rosti, bugun bu kabi texnologiyalar kirib bormagan xonadon yo'q hisobi. Bu xalqimiz turmush darajasini yengillashtirish bilan birga zamonaviy fikrini, aql-idrok va tafakkurni rivojlantirishga undaydi.

OAV vakillari Andijon shahridagi "ROBOCODE" mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan ham tanishar ekan, yosh yigit-qizlarning IT sohasida mukammal bilim va salohiyatga ega bo'layotganidan qoniqish hosil qildi.

E'tiborlisi, bu yerda banking 600 mln. so'm miqdordagi moliyaviy ko'magi orqali IT akademiyasi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Yuzlab yigit-qizlar IT sohasida o'z bilim va iqtidorini yuksaltirayotgan ushbu maskanda o'ndan ziyod yetuk mutaxassislar doimiy ish bilan band etilgan.

— Loyihaning umumiy qiymati 2 milliard so'mdan ziyod bo'lib, shundan 600 million so'mi bankdan olingan kreditdir, — deydi tadbirkor Abdulaziz Yoqubov. — Bu moliyaviy madad o'quv markazimiz uchun zarur jihozlarni xarid qilishda juda qo'l keldi.

Hozirgi kunda ikki qavatli o'quv binomizda o'quvchilar ham nazariy, ham amaliy dars mashg'ulotlarida axborot texnologiyalari bo'yicha bilim olmoqda. Kelgusida bank bilan hamkorlikda mazkur yo'nalishda boshqa hududlarda ham markazlar ochib, faoliyatimizni yanada kengaytirmoqchimiz.

Bog'chaga talab nihoyatda katta edi

Press-turning ikkinchi kunida banking moliyaviy ko'magida Andijon viloyatida servis sohasida amalga oshirilgan yangi loyihalar bilan tanishildi. Jumladan, viloyatning Izboskan tumanida yangidan barpo etilgan, 120 o'ringa mo'ljallangan maktabgacha ta'lim muassasasi 2023-yilning sentabr oyida ish faoliyatini boshlagan. Umumiy loyiha qiymati 5 mlrd. so'm bo'lgan ushbu muassasani jihozlash maqsadida tadbirkor bankingni moliyaviy ko'magidan umumli foydalandi.

— Aslida ham bu hududda bog'chaga bo'lgan talab nihoyatda katta edi, — deydi tadbirkor Dilobar Jabborova. — Shu bois ta'lim sohasidagi ko'p yillik tajribamdan foydalanib, maktabgacha ta'lim muassasasi ochishga qaror qildim. Maxsus loyiha asosida zamonaviy bog'chani quridik va "O'zmilliybank" AJ tomonidan ajratilgan imtiyozli kredit asosida uni jihozladik. Hozir 120 nafar bolaga 8 nafar tarbiyachi rus va o'zbek tillarida ta'lim beradi. Gimnastika, ingliz tili to'garaklari hamda logoped-psixolog mutaxassisimiz bolajonlar bilan alohida shug'ullanadi.

Dilobar Jabborovanning maqsadlari faqat shu emas. Yaqin yillarda xususiy maktab ochish istagida ekanligini va bu borada bank bilan hamkorlik qilish taklifini ham bildirdi.

Xulosa o'rinda aytganda, bugun "O'zmilliybank" AJ nainki o'z mijozlari talab-istaklarini ro'yobga chiqarish uchun, balki mamlakatimizning iqtisodiy yuksalishi va ravnaq topishi uchun ham o'zini mas'ul deb biladi. Eng muhimi, yangi tashabbus va ilg'or takliflarni har doim moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi.

Xizmatlar lisenziyalangan.

Hozirgi kunda viloyat iqtisodiy ko'rsatkichlarida xizmatlar sohasining ulushi har qachongidan ortib bormoqda. Xususan, 2022-yilda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 5,95 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil yakuni bilan 109,0 foiz o'sishga erishilib, ko'rsatkich 6,49 mln. so'mga yetkazildi. Bu natijalar Asaka tumanida 2022-yilda 4,24 mln. so'm bo'ldi va 2023-yil yakunida 106,8 foiz o'sish qayd etilib, ko'rsatkich 4,52 mln. so'mga yetkazildi.

Daxldorlik hissi bilan yurt ravnaqi sari

Press-tur ishtirokchilarining so'nggi manzili — "O'zmilliybank" AJning Asaka bank xizmatlari markazi bo'ldi. Ushbu markaz 1998-yilning yanvar oyida tashkil etilgan bo'lib, hozirgi kunda



32 nafar professional mutaxassis mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Asaka bank xizmatlari markazi tomonidan jami 50,1 mingta mijozga xizmat ko'rsatilsa, shundan 48,3 mingtasi jismoniy shaxslar va 1,8 mingtasi yuridik shaxslar hisoblanadi. Jismoniy shaxslarning jami depozit qo'yilmalari 8,8 mlrd. so'mni tashkil etadi. To'lov plastik kartochohalardan foydalanishda qulayliklar yaratish maqsadida joylarda 2 ta bankomat, 182 ta savdo terminali o'rnatilgan.

Asaka bank xizmatlari markazi tomonidan o'tgan yil davomida aholi va tadbirkorlik subyektlariga 84,1 mlrd. so'mdan ortiq kreditlar ajratildi. Buning natijasida 70 ga yaqin yangi ish o'rnlari yaratildi.

Fuqarolarning yashash sharoitlarini yaxshilash, uy-joy bilan ta'minlash uchun davlat dasturlari doirasida hamda banking o'z mablag'lari hisobidan birlamchi va ikkilamchi bozordan uy-joy xarid qilishga 140 nafardan ziyod fuqarolarga 42 mlrd. so'mdan ortiq ipoteka kreditlari ajratilib, ayni paytda shuncha oila yangi uyli bo'ldi.

530 dan ortiq jismoniy shaxslarning maishiy ehtiyojlari uchun, jumladan, avtotransport vositasi sotib olish, uy-joylarini ta'mirlash, to'y va boshqa oilaviy marosimlarni o'tkazish, ta'lim olish xarajatlarini qoplash uchun 14,4 mlrd. so'mdan ortiq kreditlar ajratildi.

Bugungi kunda "O'zmilliybank" AJ Andijon viloyati bosh boshqarmasi tarkibida uchta bank xizmati markazi (Andijon amaliyot BXM, Asaka BXM, Marhamat BXM), 4 ta bank xizmatlari ofisi (Shahrixon BXO, Paxtaobod BXO, Izboskan BXO va Qo'rg'onpata BXO) mavjud.

Bundan tashqari, aholiga valyuta amaliyotlarida qulayliklar yaratish maqsadida viloyat hududida bank xizmatlari markaziga tegishli 21 ta valyuta ayiriboshlash shoxobchasi va 24/7 rejimda xizmat ko'rsatuvchi uchta avtomatlashtirilgan valyuta ayiriboshlash shoxobchasi (bankomat) xizmat ko'rsatmoqda.

F. XUDOYBERDIYEV
("Xalq so'zi").

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142.15.736 nusxada bosildi. Hajmi — 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir B. Madiyorov.
Musahih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.32 Topshirildi — 00.25 1 2 3 4 5 6